



# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 – yil yanvar – sentabr

## E'tibor bering!

- 2019–yilning yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 73,6 %ni tashkil etdi.
- 2031 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 – yilning yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 17,1 birlikni tashkil qildi.

2019 – yilning yanvar– sentabrda 2031 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 marta ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (33,8 %), sanoatda (21,9 %), qurilishda (12,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (12,6 %), yashash va ovqatlanishda (9,7 %), tashish va saqlashda (1,9 %) tashkil etilgan.

## 2019 – yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan Kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




**2019 yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlar**

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirma soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>8087</b>	<b>10052</b>	<b>1965</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirma soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>1044</b>	<b>2031</b>	<b>987</b>
YaHM	%	77,7	73,6	-4,1
Sanoat	%	52,5	48,5	-4,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,3	99,5	0,2
Investitsiya	%	63,2	53,2	-10,0
Qurilish	%	97,0	96,0	-1,0
Savdo	%	93,6	86,7	-6,9
Xizmatlar	%	64,7	57,9	-6,8
Yuk tashish	%	96,0	96,3	0,3
Yuk aylanmasi	%	95,7	96,0	0,3
Yo'lovchi tashish	%	96,8	96,8	0,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,3	98,4	0,1
Eksport	%	78,3	78,7	0,4
Import	%	97,3	75,2	-22,1



**2019 yilning yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %**



**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar**


	<b>Yanvar – sentabr 2018 - yil</b>	<b>Yanvar – sentabr 2019 - yil</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1044</b>	<b>2031</b>
<b>Shirin shahar</b>	<b>21</b>	<b>40</b>
<b>Xovos tuman</b>	<b>53</b>	<b>124</b>
<b>Oqoltin tuman</b>	<b>73</b>	<b>127</b>
<b>Sardoba tuman</b>	<b>53</b>	<b>130</b>
<b>Yangier shahar</b>	<b>92</b>	<b>157</b>
<b>Sayxunobod tuman</b>	<b>108</b>	<b>134</b>
<b>Mirzaobod tuman</b>	<b>64</b>	<b>157</b>
<b>Guliston tuman</b>	<b>70</b>	<b>156</b>
<b>Boyovut tuman</b>	<b>84</b>	<b>161</b>
<b>Sirdaryo tuman</b>	<b>161</b>	<b>327</b>
<b>Guliston shahar</b>	<b>265</b>	<b>518</b>

2019 - yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Guliston shahrida - 518 ta, Sirdaryo tumanida - 327 ta, Boyovut tumanida - 161 ta, Guliston tumanida - 156 ta, Mirzaobod tumanida - 157 ta, Sayxunobod tumanida - 134 ta, Yangier shahrida - 157 ta. Sardoba, Oqoltin, Xovos tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 130-124 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida –40 tani tashkil etgan.





**2019 yil yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %**



2019 - yil yanvar – sentabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shaharga - 25,5 %, Sirdaryo tumani - 16,1 %, Boyovut tumani - 8,0 %, Guliston tumani - 7,7 %, Mirzaobod tumani - 7,7 %, Sayxunobod tumani 6,6 %, Yangier shahar - 7,7 %, Sardoba tumani 6,4 %, Oqoltin tumani - 6,2 %, Xovos tumani - 6,1 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

	yanvar – sentabr 2018 – y.	yanvar – sentabr 2019 – y.
<b>Jami</b>	<b>1044</b>	<b>2031</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'ialigi</b>	<b>183</b>	<b>256</b>
<b>Sanoat</b>	<b>186</b>	<b>445</b>
<b>Qurilish</b>	<b>173</b>	<b>263</b>
<b>Savdo</b>	<b>273</b>	<b>687</b>
<b>Tashish va saqlash</b>	<b>33</b>	<b>38</b>
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	<b>79</b>	<b>198</b>
<b>Axborot va aloqa</b>	<b>14</b>	<b>21</b>
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>9</b>	<b>18</b>
<b>Boshqa turdagi xizmatlar</b>	<b>94</b>	<b>105</b>

*Ma'lumot uchun: 2019 – yil yanvar – sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 687 ta, shuningdek:*

*sanoatda – 445ta;*

*qurilishda– 263ta;*

*qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida– 256ta;*


*Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda –198 tani  
tashki letdi.*

**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar**


	yanvar-sentyabr 2018 y.	yanvar-sentyabr 2019 y.	farq.(+)
<b>Guliston shahar</b>	265	518	253
<b>Sirdaryo tuman</b>	161	327	166
<b>Boyovut tuman</b>	84	161	77
<b>Guliston tuman</b>	70	156	86
<b>Mirzaobod tuman</b>	64	157	93
<b>Yangier shahar</b>	92	157	65
<b>Sayxunobod tuman</b>	108	134	26

2019 yil yanvar-sentabrda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Guliston shaharda – 518 ta, Sirdaryo tumanida - 327 ta, Boyovut tumanida - 161 ta, Guliston tumanida - 156 ta, Mirzaobod tumanida - 157 ta, Yangier shahrida - 157 ta, Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich 134 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga\*.**



2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 35,7 birlikda, Mirzaobod tumanida 17,9 birlikda, Sayxunobod tumanida 17,2 birlikda, Guliston tumanida 17,2 birlikda, Yangier shahrida 17,0 birlikda, Sirdaryo tumanida 16,7 birlikda, Oqoltin tumanida 15,5 birlikda aniqlandi. Boyovut tumanida 10,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

\* *Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari*


2019 yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



\* Kichik korxonalar, mikrofirmalar shuningdek fermer va dehqon xo'jaliklari

Quyida, 2019 yilning yanvar-sentabrda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik(biznes)ning sanoatdagi ulushi 48,5 %, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi–99,5 %, qurilishda - 96,0 %, investitsiyada - 53,2%, savdoda - 86,7 %, eksportda - 78,7 %, importda - 75,2 % va xizmatlar sohasidagi – 57,9 % ulushi aniq koʻrsatilgan.

### 2019 – yilning yanvar – sentabrda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi




**Dinamikasi yanvar – sentabr holatiga, %**

2019 yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,6%ni tashkil qildi. (2018 – yilning yanvar – sentabrida 77,7 %).



YaHM tarkibida pasayish yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.


**Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)**


**2019 yil yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Sirdaryo viloyati	48,5	96,0	57,9	53,2
Shirin shahar	0,9	98,3	91,8	19,7
Boyovut tuman	59,4	99,7	82,4	34,1
Guliston shahar	80,2	97,2	32,3	46,8
Oqoltin tuman	50,7	92,0	91,6	24,6
Guliston tuman	79,2	100,0	95,3	84,0
Xovos tuman	55,9	75,6	94,5	34,8
Yangier shahar	58,1	97,0	97,3	53,6
Sirdaryo tuman	86,3	100,0	94,2	72,5
Sayxunobod tuman	69,4	97,9	42,8	70,0
Sardoba tuman	31,2	100,0	84,1	78,4
Mirzaobod tuman	100,0	94,6	94,2	80,9


Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (86,3 %), Guliston shahri (80,2 %) tashkil etadi.

**Qurilishda** – Guliston tumani (100,0 %), Sardoba tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (100,0 %) va Boyovut (99,7 %) tumanlari tashkil etadi.


**Xizmatlar sohasida** Yangier shahar (97,3 %), Guliston tumani (95,3 %), Xovos tumani (94,5 %), Mirzaobod tumani (94,2 %), Sirdaryo tumani (94,2 %) va Oqoltin (91,6 %) tumanlari tashkil etadi.

**Investitsiyada** - Guliston (84,0 %), Mirzaobod (80,9 %) va Sardoba (78,4 %) tumanlari tashkil etadi.

## Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 - yilning yanvar - sentyabrida




**Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning,  
jami eksport hajmidagi ulushi, %**




2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Shirin shaharda - 100,0 %, Guliston tumanida - 99,8 %, Sardoba tumanida - 99,2 %, Yangier shaharda - 99,2 %, Oqoltin tumanida - 97,8 %, Sayxunobod tumanida - 92,7 %, Xovos tumanida - 92,6 %, Mirzaobod tumanida – 92,0 %, Sirdaryo tumani - 80,3 % va Guliston shahrida - 46,7 %, eng past ko'rsatkichni Boyovut tumani - 42,0 %ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlikdagi Import (tovar, xizmat)larning,  
jami Import hajmidagi ulushi, %**



2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmat)larning jami importdagi eng ko'p ulushi Xovos tumanida - 100,0 %, Sardoba tumanida - 100,0 %, Yangier shaharda - 100,0 %, Guliston tumanida - 100,0 %, Oqoltin tumanida - 100,0 %, Boyovut tumanida - 100,0 %, Guliston shahrida - 99,8 %, Sayxunobod tumanida - 87,4 %, va Mirzaobod tumanida - 87,2 %, eng past ko'rsatkichni Shirin shahrida - 4,7 %ni tashkil etdi.


## 2019 yil yanvar – sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (939,8mlrd. so'm), Guliston shaharda (696,0mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (171,9mlrd. so'm) Sayxunobod tumanida (146,1mlrd. so'm) va Boyovut (126,2mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shaharda (16,5 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'ldi






**2019 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (86,3 %), Guliston shahri (80,2 %), Guliston tumani (79,2 %), Sayxunobod tumani (69,4 %), Boyovut tumani (59,4 %), Yangier shahri (58,1 %), Xovos tumani (55,9 %), Oqoltin tumani (50,7 %), Sardoba tumani (31,2 %), va Shirin shahrida (0,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




**2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (632,7 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (304,9 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (165,6 mlrd. so'm), Yangier shahrida (165,5 mlrd. so'm), Boyovut tumani (96,3 mlrd. so'm), va Oqoltin tumani (94,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.


## 2019 yil yanvar – sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik(biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o`sinh sur`ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (331,2 mlrd. so`m), Sirdaryo tumani (140,7 mlrd. so`m), Mirzaobod tumani(96,0 mlrd.so`m), Yangier shahri(95,3 mlrd.so`m)hamda Boyovut (89,4mlrd.so`m), Oqoltin (73,5 mlrd. so`m)tumanlarida qayd etildi.



### 2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`shish sur`ati




Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (322,9 mlrd.so`m), Sirdaryo tumani (210,2 mlrd.so`m), Yangier shahri (130,8 mlrd.so`m) va Mirzaobod (84,8 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 54 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Ulardan sanoat korxonalari - 12 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 22,2 %), qurilish - 7 (13,0 %), savdo - 18 (33,3 %), xizmatlar sohasi - 10 (18,5 %), qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi - 7 (13,0 %) tashkil etdi.




**2019 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Guliston shahrida-20,4% (11 ta), Sirdaryo tumanida-18,5% (10 ta), Xovos tumanida-11,1% (6 ta), Boyovut tumanida-11,1% (6 ta), Sardoba tumanida-9,3% (5 ta), Mirzaobod tumanida-7,4% (4 ta), Guliston tumanida-5,6% (3 ta), Oqoltin tumanida-5,6% (3 ta), Shirin shahrida-5,6% (3 ta), Sayxunobod tumanida-3,7% (2 ta), Yangier shahrida-1,9% (1 ta).

Tarmoq	birlikda
Sanoat	12
Qurilish	7
Savdo	18
Xizmatlar	10
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7

## 2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## 2019 yil III-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 42,9 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 57,1 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 38,9 % va 61,1 %, xizmatlar sohasida – 30,0 % va 50,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 42,9 % va 42,9 %, sanoatda – 33,3 % va 66,7 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 14,2 %, xizmatlarda – 20,0 %ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy vaziyatni baholash  
2019 yil III-chorak uchun, %**



**2019 yil III-choragida yangi tashkil etilgan korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %**



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 58,3 % sanoat korxonalari, 72,2 % – savdo, 70,0 % – xizmatlar, 85,7 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 85,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.**

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas`ul: B.Mamadaliev

Tel.: (0371) 230-86-16